

SON SO‘Z –TURKUMINING O‘RGANILISHI.(6-SINF DOIRASIDA.)

Narzullayeva Malika Botir qizi

Alisher Navoiy nomidagi ToshDO‘TAU talabasi

E-mail: malikanarzullayeva88@gmail.com

Annatatsiya: Ushbu maqolada son so‘z turkumining 6-sinf ona tili darsliklari asosida o‘rganilishi, metodik yondashuvlar, o‘quvchilarning mavzuni qanday qabul qilishi, sonlarning turlari va ularni o‘rgatishda qo‘llaniladigan usullar tahlil etilgan. Maqolada zamonaviy ta’lim texnologiyalari yordamida sonlarni o‘rgatish samaradorligi haqida fikr yuritiladi. Shuningdek, mavzuni mustahkamlash uchun interfaol mashg‘ulotlar va amaliy topshiriqlar namunasi ham keltirilgan. Tadqiqot 6-sinf o‘quvchilarining yosh xususiyatlari va tilga bo‘lgan qiziqishlarini inobatga olgan holda olib borilgan.

Kalit so‘zlar: Son, sanoq son, tartib son, chama son, jamlovchi son, kasr son.

Kirish:

Ona tili darslarida o‘quvchilarga so‘z turkumlari haqida chuqur bilim berish ularning yozma va og‘zaki nutqini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. 6-sinfda o‘tiladigan son so‘z turkumi mavzusi ham o‘quvchilarning mantiqiy fikrlashi, tahlil qilish qobiliyatini shakllantirishda katta o‘rin tutadi. Ushbu maqolada son so‘z turkumining turlari, ularni o‘rgatish metodikasi hamda 6-sinf darajasida qanday qilib oson, tushunarli va samarali tarzda tushuntirish mumkinligi tahlil qilinadi.

Til – inson tafakkurining, madaniyati va ruhiy dunyosining ifodasidir. Har qanday tilda fikr ifodalashning asosiy vositasi so‘zlardir. So‘zlar esa o‘z vazifasi, turkumlarini ma’no va tuzilishiga ko‘ra turli guruhlariga – so‘z turkumlariga bo‘linadi. So‘z o‘rganish tildagi birliklarning tuzilishini, ularning gapdagi o‘rnini va vazifasini chuqur anglashga yordam beradi. Ushbu maqolada so‘z turkumlarining turlari, ularning xususiyatlari hamda tilimizdagi o‘rni haqida fikr yuritiladi

Har bir til o'zining so'z boyligi va grammatik qurilishi bilan ajralib turadi. Tilimizdagi so'zlar ma'nosi va vazifasiga ko'ra turli guruhlariga bo'linadi. Bular "so'z turkumlari" deb ataladi. So'z turkumlarini o'rganish orqali biz so'zlarning qanday ishlatilishini, gapda qanday rol o'ynashini bilib olamiz. Bu esa to'g'ri va ravon nutq uchun juda muhimdir.

Leksik va grammatik jihatdan o'zaro umumiylikka ega bo'lgan so'zlar guruhlarini so'z turkumlari deb ataladi. Tilshunoslikda so'z turkumlarini o'rganish muhim nazariy masala hisoblanadi, chunki ular tilning asosiy grammatik tizimini tashkil etadi. Ushbu maqolada o'zbek tilidagi so'z turkumlarining turlari, ularning grammatik belgilar va vazifalari yoritiladi.

So'zlar – til guli, nutq bezagi. Har bir so'z o'zining ma'no ranglari, ohangdorligi va vazifasi bilan til manzarasini yanada boyitadi. Ba'zilar fikr ifodalashda bosh rolni o'ynasa, boshqalar unga xizmat qiladi. Bu turli vazifalarga ko'ra so'zlar guruhlariga bo'linadi. Bu guruhlar so'z turkumlari deb ataladi. Tilimizdagi bu mo'ljizali tuzilmani o'rganish orqali biz so'zlarning sehrli dunyosiga yanada chuqurroq kirib boramiz.

"Son so'z turkumi" ni o'qitish metodikasi 6-sinf "Ona tili" dasturida "Son so'z turkumi" ta'limi uchun quyidagi mavzular belgilangan: Son so'zlarning umumiy belgilari va vazifalari, Miqdor sonlar, uning turlari: sanoq sonlar va ularning yozilishi, Sanoq sonlar bilan qo'llanuvchi hisob so'zlari, Dona son va taqsim son shakllari, Chama sonlar va ularning yozilishi, Jamlovchi sonlar, ularning hosil qilinishi, Butun son va kasr son, ularning yozilishi, Hisob so'zlari, Tartib sonlar, ularning yozilishi Odatda, narsa-buyumlarning son-sanog'ini va tartibini bildirib, qancha?, necha?, nechanchi? So'roqlariga javob bo'ladigan so'zlar turkumi bo'lgan sonlarni o'rganishda ularning imlosiga, qo'llanilishiga, semantik xususiyatlariga e'tibor qaratish zarur. "Son so'zlarning umumiy belgilari va vazifalari" haqidagi ma'lumotlar sirasida quyidagilar bo'lishi muhim: 1) sonlar uch xil yoziladi: arab raqamlari bilan: 1, 2, 5, 25, 52, 91...; 2) rim raqamlari bilan: I, II, IV, XXV, LII, XCI..., 3) harflar bilan: bir, ikki, besh, yigirma besh, ellik ikki, to,,qson bir...kabi;

Sonlar morfologik tuzilishiga ko'ra sodda (to'rt, olti, yetti, o'n, yuz, ming, million); qo'shma (o'n to'qqiz, bir yuz-u on besh, ikki ming yigirma), juft (to'rt-besh, yetti-sakkiztadan, o'nta-yigirmata), takror (ikkita-ikkita, o'nta-o'nta) ko'rinishlarga ega;

Nutqimizda tez-tez ishlatiladigan 23ta sodda son bo'lib, boshqa sonlar shu sonlarning qo'shilishidan hosil bo'ladi: nol, bir, ikki, uch, to'rt, besh, olti, yetti, sakkiz, to'qqiz, o'n, yigirma, o'ttiz, qirq, ellik, oltmish, yetmish, sakson, to'qson, yuz, ming, million, milliard.

Sonlar yasalmaydi, ammo boshqa so'z turkumlarining yasalishi uchun asos vazifasini bajaradi (masalan, ikkilanmoq (fe'l); to'rtlik (ot) kabi).

Sonlar, odatda, otlar bilan birga qo'llanilib, ularning aniqlovchisi (uchinchi kurs, yettinchi palata, beshta kitob) bo'lib keladi. Sonlarning o'zi hech qachon aniqlovchi olmaydi. Sonlar sintaktik xususiyatiga ko'ra kesim (Ishlarim besh; Ikki o'n besh–bir o'ttiz), ma'nosi torayganda ega (Oltovlon ola bo'lsa, og_zidagin oldirar; uchovi Roziya buvinikga chiqishdi (A.Qahhor), to'ldiruvchi (To'rtini ikkiga bo'lsang, natija ikki bo'ladi) vazifasida ham kela oladi.

Sonlar butun yoki uning qismini ifodalashiga ko'ra butun son, kasr son va aralash songa bo'linadi. Butun son narsa-buyumning sanog'ini, miqdorini uning butunligini saqlagan holda ifodalaydi (1, 3, 5, 12 kabi);

Kasr son butunning bo'lagini, ulushini ifodalaydi. Kasr son ikki xil bo'ladi: Ikki son chiqish kelishigi qo'shimchasi bilan bog'langan bo'ladi (ikkidan bir, uchdan ikki, to'qqizdan besh.); O'z holicha kasrni anglatadigan so'zlar bo'ladi: yarim ($1/2$), chorak ($1/4$), nimchorak ($1/8$); Butun son bilan kasr son birgalikda ishlatilsa, aralash son bo'ladi (bir yarim, ikki butun o'ndan besh, bir butun to'rt dan uch). Sonlar ma'no va grammatik jihatdan olti xil bo'ladi: 1) miqdor son (uch, besh, sakkiz, o'n olti), 2) dona son (uchta, beshta, sakkizta, o'n oltita), 3) tartib son (uchinchi, beshinchi, sakkizinchi, o'n oltinchi), 4) chama son (uchtacha, beshtacha, o'nlab, Soat o'n birlar bo'ldi), 5) jamlovchi son (uchala, beshov(i), oltovlon), 6) taqsim son (uchtadan, beshtadan).¹

Son so'z turkumini o'tish uchun metodlar

1) Son kartochkasi o'yini

O'quvchilarga raqamlar va so'zlar yozilgan kartochkalar tarqatiladi.

Masalan: uchinchi, bir yarim, yuzlab, ikki marta

¹ O'zbek tilini o'qitish metodikasi. D. Yo'ldosheva 297 bet.

Topshiriq Har bir o'quvchi o'z kartasidagi so'z turini aytib, doskada tegishli guruhga yopishtiradi.

Xulosa:6-sinfda son so'z turkumini o'rgatish orqali o'quvchilarning tahliliy fikrlash, grammatik bilimi va nutq madaniyatini rivojlantirish mumkin. Interfaol usullar, jonli misollar va mustahkamlovchi topshiriqlar yordamida mavzu yanada qiziqarli va oson qabul qilinadi. Ushbu maqolada keltirilgan metodik yondashuvlar o'qituvchilarga amaliy yordam bo'lishi mumkin.

Son so'z turkumi tilda narsalarning miqdori, tartibi va ularning nechta ekanini bildiruvchi so'zlardir. Ular ot bilan bog'lanib, gapda asosan aniqlovchi, to'ldiruvchi va ba'zida ot vazifasini bajaradi. Sonlar o'z turlariga ko'ra — aniq, tartib, kasr, ko'paytma, taxminiy kabi guruhlarga bo'linadi. Har bir tur o'ziga xos ma'no ifodalaydi va nutqda keng qo'llaniladi. Sonlar yordamida miqdoriy aniqlik, ketma-ketlik, taqqoslash va mantiqiy tushuncha ifodalanadi. Shuning uchun son so'z turkumini to'g'ri tushunish va ularni amalda qo'llay bilish savodxon nutq uchun muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi umumiy o'rta ta'lim maktablari uchun 6-sinf Ona tili darsligi. – Toshkent: “O'qituvchi”, 2022.
2. Abduazizov A. va boshq. “Ona tili va o'qish savodxonligi” metodik qo'llanma. – Toshkent: 2021.
3. Mahmudov N., Jo'rayev M. “Hozirgi o'zbek adabiy tili”. – Toshkent: Fan, 2006.
4. Qodirov A. “Tilshunoslik asoslari”. – Toshkent: O'qituvchi, 2003.
5. Tilshunoslikdan amaliy mashg'ulotlar. – Toshkent: TDPU nashriyoti, 2019.